



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOIYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBIZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIIY BAHOLASH.....	248
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES	256
Kamola Bobonarova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	262
Zohidov Jamshid Botirxonovich	
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH	279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL.....	288
H.S. Bobojonov	
OLIIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING USLUBIIY ASOSLARI.....	294
Mamanazarov A.A.	
OZIYQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQRISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHA TLARI.....	299
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	308
Axmetova Salima Seytovna	



HUDUD IQTISODIYOTIGA "YASHIL INVESTITSİYALAR"NI JALB QILISH MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI.....	313
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	321
Suyunov R.G'.	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	326
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH.....	334
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA KUZATUVLARNING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	340
Siroj Zarina Rustambekovna	
MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	347
Toshxo'jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli	
KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI FAOLIYATIDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI	354
G'iyosov Ilxom Karimovich	
FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL.....	361
Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu	
BARQAROR HOSILDORLIKNI TA'MINLASHNING IQTISODIY YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	369
Turayeva Gulizahro	
INNOVATION EKOTIZIMDA FAN-TA'LIM-ISHLAB CHIQUV INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI	374
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....	378
Yusubboyeva Dinora Quddat qizi	
OHAK TOSH QAZIB OLIH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLIH.....	386
Kaxorov Ulug'bek	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR)	389
Abdukarimov Akbar G'anisherovich	
KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATION RIVOJLANTIRISHNI IMITATION MODELLASHTIRISH.....	393
Raximov Azizbek Zokirovich	
OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI.....	400
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	404
Kodirova Xurshida Ismoilovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATION MENEJMENT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	409
Yusupov Ulug'bek Shukurullayevich	
Omonov Abdurazzoq Komil o'g'li	



KREATIV IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....	416
Xamidova Soro	
Toshpulatova Laylo	
DIGITALLY-ENABLED COMMUNITY AGRITOURISM AS A PATHWAY TO RURAL INCOME IN THE ARAL SEA REGION: A CONCEPTUAL APPROACH.....	423
Mariya Bekimbetova	
SIFAT MENEJMENTI TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHGAN XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	427
Qurbonova Dilafruz Anvarjon qizi	
SANOAT ZONALARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	431
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSİYALARNI SUG'URTALASHDAGI AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI	439
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOT HAJMIGA TA'SIR ETUVCHI MAKROIQTISODIY OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI	443
Safarova Yulduz Abbos qizi	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARINI MOLIYAVIY HISOBOTNI SOXTALASHTIRISH HOLATLARINI ANIQLASHDA QO'LLASH	448
Xusanov Shuxrat Burxonovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИВНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ.....	454
Рузибоева Нилуфар Тўлқин қизи	
ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT MECHANISMS FOR EFFICIENT WATER RESOURCE USE BASED ON CIRCULAR ECONOMY PRINCIPLES	461
Sotvoldiyeva Muslimaxon Gayratjon kizi	
HUDUDIY IQTISODIY IXTISOSLASHUVNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY INDEKSLARI: TAHLILIY SHARH VA INTEGRAL YONDASHUV	467
Mansurov Zikriyo Muxsinjon o'g'li	



HUDUDIY IQTISODIY IXTISOSLASHUVNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY INDEKSLARI: TAHLILIIY SHARH VA INTEGRAL YONDASHUV

Mansurov Zikriyo Muxsinjon o'g'li

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti

E-mail: zikriyo.mansurov97@mail.ru

ORCID: 0009-0002-7828-1490

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududiy iqtisodiy ixtisoslashuvni baholashda qo'llaniladigan lokalizatsiya koeffitsiyenti (LQ), namoyon bo'lgan qiyosiy ustunlik indeksi (RCA), Herfindal–Hirshman indeksi (HHI) va Shennon entropiyasi ko'rsatkichi kabi asosiy tahliliy vositalar ilmiy genezisi, matematik mazmuni hamda amaliy cheklovlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur metodika Navoiy viloyati konchilik-metallurgiya majmuasi misolida sinovdan o'tkazilgan.

Kalit so'zlar: hududiy ixtisoslashuv, lokalizatsiya koeffitsiyenti, RCA, Herfindal–Hirshman indeksi, Shennon entropiyasi, integral indeks, mintaqaviy iqtisodiyot, Navoiy viloyati.

Аннотация. В данной статье проанализированы основные аналитические инструменты, применяемые для оценки региональной экономической специализации, включая коэффициент локализации (LQ), индекс выявленного сравнительного преимущества (RCA), индекс Херфиндаля–Хиршмана (HHI) и показатель энтропии Шеннона, с точки зрения их научного генезиса, математического содержания и практических ограничений. Предложенная методика апробирована на примере горно-металлургического комплекса Навоийской области.

Ключевые слова: региональная специализация, коэффициент локализации, RCA, индекс Херфиндаля–Хиршмана, энтропия Шеннона, интегральный индекс, региональная экономика, Навоийская область.

Abstract. This article examines the principal analytical tools used to assess regional economic specialization, including the Location Quotient (LQ), Revealed Comparative Advantage (RCA) index, Herfindahl–Hirschman Index (HHI), and Shannon entropy measure, from the perspectives of their scientific genesis, mathematical foundations, and practical limitations. The proposed methodology is empirically tested using the mining and metallurgical complex of the Navoi region as a case study.

Keywords: regional specialization, Location Quotient (LQ), Revealed Comparative Advantage (RCA), Herfindahl–Hirschman Index (HHI), Shannon entropy, composite index, regional economy, Navoi region.

KIRISH

Mintaqalarning iqtisodiy ixtisoslashuv darajasini aniq va obyektiv baholash mintaqaviy siyosatni ishlab chiqish, investitsiya ustuvorliklarini belgilash va tarmoqlararo muvozanatni ta'minlash uchun zarur shart hisoblanadi. Iqtisodiy fanda hududiy ixtisoslashuvni o'lchashning bir qancha yondashuvlari shakllangan bo'lib, ularning ildizlari XX asrning birinchi yarmiga borib taqaladi [1]. Ushbu yondashuvlarning har biri joylashuv nazariyasi, xalqaro savdo nazariyasi yoki axborot nazariyasidan kelib chiqqan holda shakllangan va shu sababli har biri o'ziga xos afzallik va cheklovlarga ega.

Ushbu maqolaning maqsadi hududiy ixtisoslashuvni baholashda eng ko'p qo'llaniladigan to'rtta indeksni (LQ, RCA, HHI, entropiya) tizimli tahlil qilish, ularning ilmiy asoslarini va amaliy cheklovlari ko'rsatib berish hamda ushbu cheklovlarni bartaraf etuvchi integral baholash metodikasini taklif etishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston mintaqalarining iqtisodiy ixtisoslashuvini baholash jarayoni, predmeti sifatida esa ixtisoslashuvni o'lchovchi indekslar tizimi olingan. Maqola quyidagicha tuzilgan: adabiyotlar sharhida to'rtta klassik indeksning nazariy asoslari ko'rib chiqiladi; metodologiya qismida muallif taklif etgan integral indeks bayon etiladi; tahlil qismida metodika Navoiy viloyati misolida sinovdan o'tkaziladi; xulosa qismida asosiy natijalar va takliflar keltiriladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Lokalizatsiya koeffitsiyenti (Location Quotient, LQ)

Lokalizatsiya koeffitsiyenti hududiy iqtisodiyotni tahlil qilishda eng qadimiy va keng tarqalgan vositalardan biri bo'lib, uning nazariy asoslari R. Heyg tomonidan shahar iqtisodiyoti tuzilishini o'rganish jarayonida shakllantirilgan. Keyinchalik P. Florens ushbu yondashuvni sanoat joylashuvi nazariyasi doirasida rivojlantirdi [2].

$$LQ_{i,r} = (E_{i,r} / E_r) / (E_{i,n} / E_n)$$

bu yerda $E_{i,r}$ -r hududidagi i tarmoqdagi band ishchilar soni (yoki qo'shilgan qiymat); E_r -r hududidagi barcha band ishchilar soni; $E_{i,n}$ va E_n -mos ravishda mamlakat bo'yicha shu ko'rsatkichlar.

$LQ > 1$ qiymati hududning shu tarmoqda mamlakat o'rtachasidan yuqori ixtisoslashganligini bildiradi. Metodning asosiy afzalligi -hisoblash soddaligi va ma'lumotlarga nisbatan talabchan emasligi. Biroq M. Porter ta'kidlaganidek, LQ faqat nisbiy konsentratsiyani ko'rsatadi va tarmoqning raqobatbardoshligi yoki sifat jihatlarini aks ettirmaydi [3].

Namoyon bo'lgan qiyosiy ustunlik indeksi (RCA)

B. Balassa tomonidan 1965 yilda taklif etilgan RCA indeksi dastlab xalqaro savdo nazariyasi doirasida mamlakatlarning eksport tuzilishini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan, biroq keyinchalik mintaqaviy tahlilda ham keng qo'llanila boshlandi (Balassa, 1965).

$$RCA_{i,r} = (X_{i,r} / X_r) / (X_{i,n} / X_n)$$

bu yerda $X_{i,r}$ -r hududining i tarmoq bo'yicha eksporti yoki ishlab chiqarishi; qolgan belgilar LQ formulasidagi kabi izohlanadi.

RCA indeksining asosiy cheklovi shundaki, u 0 dan cheksizlikkacha asimmetrik shkalada o'zgaradi, bu esa statistik tahlil va taqqoslashni murakkablashtiradi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun B. Dalum, K. Laursen va G. Villumsen simmetrik RCA (RSCA) transformatsiyasini taklif qilgan, u indeksni -1 dan +1 gacha oraliqqa keltiradi [4]. (Dalum va boshq., 1998).

Herfindal-Hirshman indeksi (HHI)

HHI dastlab O. Herfindal tomonidan po'lat sanoatidagi bozor konsentratsiyasini o'rganish maqsadida ishlab chiqilgan [5], mustaqil ravishda A. Hirshman esa uni xalqaro savdo tuzilishini tahlil qilishda qo'llagan [6]. Hozirda indeks ikkala mualliflar nomi bilan ataladi va AQSh Federal rezerv tizimi tomonidan bozor konsentratsiyasini rasmiy monitoring qilishda foydalaniladi [7].

$$HHI_r = \sum (s_{i,r})^2$$

bu yerda $s_{i,r}$ -r hududida i tarmoqning umumiy hajmdagi ulushi. HHI 0 dan 1 gacha (yoki 0-10000 shkalasida) o'zgaradi: qiymat qanchalik yuqori bo'lsa, hududiy iqtisodiyot shunchalik konsentratsiyalashgan ya'ni mono-ixtisoslashgan hisoblanadi.

HHI ning afzalligi barcha tarmoqlar ulushini bir vaqtda hisobga olishi va tuzilmaviy konsentratsiyani yagona songa jamlashidir. Biroq indeks qaysi tarmoq ixtisoslashuv manbai ekanligini ko'rsatmaydi va shu sababli u ko'pincha LQ yoki RCA bilan birgalikda qo'llaniladi.

Shannon entropiya ko'rsatkichi

Axborot nazariyasidan iqtisodiy tahlilga o'tkazilgan entropiya ko'rsatkichi dastlab K. Shannon tomonidan axborot uzatish nazariyasi doirasida taklif etilgan [8] H. Teyl uni iqtisodiy tarkibiy tahlilga moslashtirdi va bugungi kunda u tarmoqlar diversifikatsiyasini o'lchashning standart vositasi hisoblanadi [9].

$$H_r = -\sum s_{i,r} \cdot \ln(s_{i,r})$$

Entropiya HHI ga teskari mantiqda ishlaydi: uning qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, hududiy iqtisodiyot shunchalik diversifikatsiyalashgan ya'ni ixtisoslashuv darajasi past hisoblanadi. Ko'rsatkichning afzalligi barcha tarmoqlar ulushidagi o'zgarishlarga nisbatan sezgirligi yuqori bo'lishidir, biroq natijaning talqini boshqa indekslarga nisbatan intuitiv emas. Yuqoridagi indekslarni jamlab tahlil qilsak ular haqida umumiy batafsil tushunchaga ega bo'lishimiz mumkin (1-jadval).



1-jadval.
Indekslarning qiyosiy tahlili [10]

Indeks	Mualliflar	O'lchov predmeti	Asosiy cheklov
LQ	Haig, 1926; Florence, 1948	Nisbiy tarmoq konsentratsiyasi	Sifat va raqobatbardoshlikni hisobga olmaydi
RCA	Balassa, 1965	Eksport bo'yicha qiyosiy ustunlik	Assimmetrik shkala
HHI	Herfindahl, 1950; Hirschman, 1945	Tarmoqlar tuzilishining konsentratsiyasi	Ixtisoslashuv manbaini ko'rsatmaydi
Entropiya	Shannon, 1948; Theil, 1967	Tarmoqlar diversifikatsiyasi	Talqini murakkab

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda hududiy iqtisodiy ixtisoslashuvni baholashning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Hududiy ixtisoslashuvni miqdoriy baholashda xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan lokalizatsiya koeffitsiyenti (LQ), namoyon bo'lgan qiyosiy ustunlik indeksi (RCA), Herfindal–Hirshman indeksi (HHI) va Shennon entropiyasi ko'rsatkichlarining nazariy asoslari hamda matematik modellari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amaliy misol: Navoiy viloyati kon-metallurgiya majmuasi

Navoiy viloyati O'zbekiston hududiy iqtisodiyotida monoixtisoslashgan tuzilmaning eng yaqqol namunasidir. Bu bahoni sifat darajasidagi mulohaza sifatida emas, balki rasmiy statistika bilan tasdiqlangan tarkibiy fakt sifatida qabul qilish lozim: 2024-yil yanvar–iyun yakunlariga ko'ra sanoat tarmog'ining viloyat yalpi hududiy mahsuloti (YAHM) tarkibidagi ulushi 75,1 %ni tashkil etib, respublikaning barcha hududlari orasida eng yuqori ko'rsatkich bo'lgan; taqqoslash uchun ayni davrda sanoatning mamlakat YAIMidagi o'rtacha ulushi atigi 27,8 %ga teng edi. Aksincha, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining Navoiy viloyati YAHMidagi ulushi bor-yo'g'i 10,8 %ni tashkil etib, mamlakat bo'yicha eng past ko'rsatkichlardan biridir. Demak, viloyat iqtisodiyotining tarkibiy "og'irlik markazi" bitta yirik tarmoq — konchilik va metallurgiyaga siljigan bo'lib, bu holat ixtisoslashuvning yuqori kuchini tabiiy ravishda keltirib chiqaradi [11].

Ushbu tarkibiy ustunlikning moddiy asosi ikkita davlat korxonasi — "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" (NKMK) va "Navoiyuran" davlat korxonasida mujassamlashgan. NKMK oltin ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinni egallaydi: 2024-yilda kombinat 87,9 tonna (3,10 mln untsiya) oltin ishlab chiqarib, hajmi 5,4 %ga oshirdi va 7,4 mlrd dollarlik rekord daromadga erishdi; sof foyda 2,14 mlrd dollarni tashkil etdi. Kombinat tarkibida 12 ta asosiy tog'-kon va 9 ta qayta ishlash korxonasi faoliyat yuritadi, unda 47 mingdan ziyod xodim band; resurs bazasining o'zagini jahondagi eng yirik konlardan biri — Muruntov-Myutenbay koni tashkil etadi. Milliy ahamiyat darajasini bitta ko'rsatkich yaqqol ifodalaydi: davlat budjeti soliq tushumlarining 16,3 %i aynan NKMK hissasiga to'g'ri keladi. Ikkinchi yadro — "Navoiyuran" DK esa uran sanoatini ifodalaydi va 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida 10,6 trln so'mlik mahsulot ishlab chiqarib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,7 %ga o'sdi. Shu tariqa, viloyat ixtisoslashuvi tasodifiy tarmoqlar yig'indisi emas, balki bir nechta yirik, kapital sig'imi yuqori va eksportga yo'naltirilgan korxonalar atrofida shakllangan izchil klaster xususiyatiga ega [12].

Ushbu tadqiqot doirasida hisoblangan $LQ = 2,58$ qiymati aynan shu tarkibiy manzarani miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi. LQ ko'rsatkichi 1,25 chegarasidan sezilarli yuqori bo'lgani sababli, viloyat tanlangan tarmoq bo'yicha mamlakat o'rtachasidan qariyb ikki yarim baravar kuchliroq ixtisoslashganini bildiradi. Bu qiymat yuqorida keltirilgan tarkibiy ulushlar (sanoatning 75,1 % va past agrar ulushi) bilan bir-birini o'zaro mustahkamlaydi: LQ ixtisoslashuv kuchini statistik jihatdan o'lchasa, YAHM tarkibi uning iqtisodiy mazmunini ochib beradi. Ta'kidlash joizki, agar tahlil "sanoat" darajasidan "metallurgiya" quyi tarmog'i darajasiga tushirilsa, ixtisoslashuv koeffitsiyenti yanada yuqori qiymatga ($LQ > 3$) intiladi, chunki viloyat sanoatining hal qiluvchi qismi aynan qimmatbaho va rangli metallurgiyaga to'g'ri keladi.

Biroq yuqori ixtisoslashuv kuchi hududiy iqtisodiyotning barqarorligini avtomatik ravishda kafolatlamaydi, aksincha, u tarkibiy zaiflikning ham manbai bo'lishi mumkin. Navoiy viloyati misolida beqarorlik uch kanal orqali namoyon bo'ladi. Birinchidan, tovar qaramligi: viloyat eksporti va daromadining asosiy qismi bitta




xomashyo guruhi — oltinga bog'liq bo'lib, jahon bozorida oltin narxining tebranishi (2024-yilda LBMA bo'yicha o'rtacha narx bir untsiya uchun 2 389 dollarga yetgan) viloyat yalpi ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, korxona (institutsonal) konsentratsiyasi: iqtisodiy faollikning asosiy qismi amalda ikki-uchta yirik davlat korxonasida jamlangan bo'lib, bu tizimli qaramlikni yuzaga keltiradi. Uchinchidan, tashqi bozor konsentratsiyasi: qimmatbaho metallar affinaji yo'nalishi tufayli 2025-yil boshida viloyat eksportining aksar qismi bitta hamkor davlat — Fransiya (76,4 %) hissasiga to'g'ri kelgan, bu esa geografik diversifikatsiyaning pastligini ko'rsatadi. Ushbu uch omil birgalikda tarkibiy barqarorlik ko'rsatkichlarining past qiymatini, ya'ni yuqori HHI va past Shennon entropiyasini nazariy jihatdan oldindan belgilaydi [13].

Aynan shu ikki o'lchov — ixtisoslashuv kuchi va tarkibiy barqarorlik kesishmasi 1-rasmda keltirilgan matritsada vizuallashtirilgan. Unda Navoiy viloyati yuqori ixtisoslashuv kuchi (o'ng tomon) va nisbatan past tarkibiy barqarorlik (past qism) bilan ajralib turadigan “kuchli, ammo beqaror” chorakda joylashadi. Bu joylashuv tasodifiy emas: yuqori ixtisoslashuv past tarkibiy diversifikatsiya bilan uyg'unlashganda, hudud yagona tarmoq konyunkturasiga o'ta sezgir bo'lib qoladi. Boshqacha aytganda, viloyatning kuchi, ya'ni jahon miqyosidagi raqobatbardosh metallurgiya yadrosi, ayni paytda uning monoixtisoslashgan tarkibiy qaramlik manbaiga aylanadi. Bu esa mineral-xomashyoga boy hududlar uchun xos bo'lgan klassik “resurs qaramligi” dilemmasi hisoblanadi.

Nihoyat, tahlilning analitik xulosasi shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyati hududiy siyosat nuqtayi nazaridan ikki tomonlama vazifani keltirib chiqaradi: bir tomondan, mavjud raqobatbardosh yadroning samaradorligi va qo'shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish; ikkinchi tomondan, monoixtisoslashgan tarkibiy qaramlikni yumshatuvchi diversifikatsiya yo'nalishlarini rag'batlantirish. Aynan shu ziddiyat — kuch va beqarorlikning bitta hududda birlashuvi — mazkur amaliy misolni ixtisoslashuvni baholash metodologiyasi uchun namunaviy tahlil obyektiga aylantiradi (1-rasm).

2-rasm. «Ixtisoslashuv kuchi — tarkibiy barqarorlik» matritsasi va Navoiy viloyatining undagi o'rni



1-rasm. Ixtisoslashuvning kuchi va tarkibiy barqarorlik matritsasi va Navoiy viloyatining undagi o'rni [14].

Ilmiy yangilik va metodikaning cheklavlari

Yuqorida aniqlangan asosiy kamchilik — O'zbekistonda hududiy ixtisoslashuvni baholashda yagona, integratsiyalashgan ko'rsatkichning yo'qligi — mazkur tadqiqotning markaziy ilmiy muammosini tashkil etadi.



Uni bartaraf etish uchun biz mavjud xalqaro indekslarning bir-birini to'ldiruvchi jihatlaridan foydalangan holda yangi gibrid (integral) baholash indeksi va unga mos metodikani ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Taklif etilayotgan indeksning ilmiy yangiligi shundaki, u mavjud yondashuvlarni inkor etmaydi, aksincha, to'rtta bazaviy indeksni yagona, izohlash mumkin bo'lgan ko'rsatkichga birlashtiradi hamda dinamik va sifat tuzatish koeffitsiyentlari yordamida ularning ikki tub kamchiligini, ya'ni statiklik va sof miqdoriylikni bartaraf etadi.

Ayni paytda taklif etilayotgan metodika bir qator obyektiv cheklovlariga ega bo'lib, biz ularni ochiq qayd etamiz. Birinchidan, u ma'lumotlarga talabchan bo'lib, tarmoqlar bo'yicha qo'shilgan qiymat, band ishchilar soni va eksport hajmlari kabi to'liq va izchil hududiy statistikani talab qiladi. O'zbekiston hududiy statistikasida ayrim ko'rsatkichlarning bu darajada disaggregatsiyalanmagani metodikaning amaliy qamrovini cheklashi mumkin. Ikkinchidan, geterogen indekslarni yagona ko'rsatkichga birlashtirish vazn koeffitsiyentlarini belgilashni taqozo etadi. Ularni ekspert bahosi orqali aniqlash subyektivlik xavfini, asosiy komponentlar tahlili (PCA) orqali aniqlash esa nazariy asoslanishning nisbatan zaiflashuvi va tanlanmaga sezgirlik xavfini keltirib chiqaradi. Uchinchidan, kompozit indekslarga xos umumiy muammo — normallashtirish usuliga bog'liqlik — komponentlar o'rtasidagi o'zaro talqin xatolariga olib kelishi mumkin.

Sanab o'tilgan cheklovlar yoki kamchiliklar metodikaning ilmiy qiymatini kamaytirmaydi, aksincha, uni takomillashtirishning aniq yo'nalishlarini belgilaydi va shu tariqa mazkur metodika mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida keyingi ilmiy ishlanmalar uchun ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, hududiy ixtisoslashuvni baholashning mavjud indeksleri — lokalizatsiya koeffitsiyenti (LQ), qiyosiy ustunlik indeksi (RCA/RSCA), Herfindal–Hirshman indeksi (HHI) va entropiya ko'rsatkichlari — har biri o'ziga xos mustahkam nazariy asosga ega bo'lsa-da, alohida qo'llanilganda faqat bir qirrani aks ettiradi. LQ jamlanish darajasini o'lchaydi, ammo raqobat darajasi haqida ma'lumot bermaydi. RSCA nisbiy ustunlikni ko'rsatadi, biroq tuzilmaning diversifikatsiya darajasini qamrab olmaydi. HHI va entropiya konsentratsiyani baholaydi, lekin ixtisoslashuvning sifat mazmuni va vaqt bo'yicha barqarorligini e'tibordan chetda qoldiradi. Ayni shu tarqoqlik, ya'ni yagona, integratsiyalashgan ko'rsatkichning yo'qligi O'zbekistonda hududiy ixtisoslashuvni baholash amaliyotining asosiy metodologik kamchiligi sifatida qayd etildi va mazkur tadqiqotning markaziy diagnostik topilmasini tashkil etadi.

Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilishi tavsiya etilayotgan gibrid (integral) baholash metodikasi mavjud indekslarni inkor etmaydi, aksincha, ularni yagona, izohlash mumkin bo'lgan ko'rsatkichga birlashtiradi hamda dinamik va sifat tuzatish koeffitsiyentlari yordamida klassik yondashuvlarning statiklik va sof miqdoriylik kabi ikki cheklovini bartaraf etadi. Shu tariqa metodika ixtisoslashuvning nafaqat qanchalik kuchli ekanini, balki qanchalik barqaror va qanday sifatda ekanini bir vaqtning o'zida baholash imkonini beradi. Bu esa hudud va mintaqada an'anaviy, bir o'lchamli baholashdan ko'p o'lchamli, aniq va tarkibiy tahlilga o'tish imkonini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Haig R.M. Toward an Understanding of the Metropolis // *The Quarterly Journal of Economics*. – 1926. – Vol. 40, No. 3. – P. 402–434.
2. Florence P.S. *Investment, Location, and Size of Plant*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1948.
3. Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990.
4. Dalum B., Laursen K., Villumsen G. Structural Change in OECD Export Specialisation Patterns: De-specialisation and “Stickiness” // *International Review of Applied Economics*. – 1998. – Vol. 12, No. 3. – P. 423–443.
5. Herfindahl O.C. *Concentration in the Steel Industry*: PhD Dissertation. – New York: Columbia University, 1950.
6. Hirschman A.O. *National Power and the Structure of Foreign Trade*. – Berkeley: University of California Press, 1945.
7. Rhoades S.A. The Herfindahl–Hirschman Index // *Federal Reserve Bulletin*. – 1993. – Vol. 79. – P. 188–189.
8. Shannon C.E. A Mathematical Theory of Communication // *Bell System Technical Journal*. – 1948. – Vol. 27, No. 3. – P. 379–423.
9. Theil H. *Economics and Information Theory*. – Amsterdam: North-Holland, 1967.
10. Muallif tomonidan tuzilgan.



11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Navoiy viloyati statistika boshqarmasi. 2024-yilning yanvar–iyun oylarida YAIMning tarmoqlar bo'yicha tarkibida sanoatning ulushi qanday? URL: <https://www.navstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/13053-2024-yilning-yanvar-iyun-oylarida-yaimning-tarmoqlar-bo-yicha-tarkibida-sanoatning-ulushi-qanday>
12. "NKMK 2024-yilda 87,9 tonna oltin ishlab chiqardi" // *Gazeta.uz*. – 2025-yil 16-aprel. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/16/nkmk/>
13. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi. *Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi: tashqi savdo*. – 2025-yil mart. URL: https://www.navstat.uz/images/Nashrlar/Press-relizlar/2025/Tashqi_iqtisodiy_faoliyat_va_savdo_statistikasi/Tashqi_savdo/mart-uz.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>